

HAMID OLIMJON SHE'RIYATI

*Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna**Termiz davlat universiteti akademik litseyi**Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqimizning suyuqli shoiri Hamid Olimjonning hayoti va ijodi, shuningdek, shoir ijodidagi she'rlarning xarakter xususiyatlari haqida ilmiy tahliliy bayon yoritilgan.

Kalit so'zlar: "O'rik gullaganda", she'riyat, badiiy tasvir, ijod, shoir.

Buyuk o'zbek shoiri, akademik, Jizzax farzandi Hamid Olimjon 1909-yilda Jizzaxda tug'ilgan ekanki, mana oradan necha yillar o'tibdi ham, uning nomi dillarda barhayot. Har safar Hamid Olimjon haqida so'z ketganida Zulfiyaxonim ko'z o'ngimda namoyon bo'ladi. Nega deganda, Yaratgan har neni, har kimsani o'z jufti bilan yaratgan. Buyuk o'zbek shoirasi Zulfiyaxonimning ismi yodga olinganida bevosita Hamid Olimjon ham eslanadi, e'tirof etiladi, qadrlanadi. Hamid Olimjonning she'rlarini maktab darsliklaridan, kollej davri kitoblaridan, she'riy to'plamlardan, nazmiy antalogiyalardan o'rganib, shuni ayta olamanki, buyuk o'zbek shoiri chin ma'nodagi iste'dod egasidir. Inchunun, san'atsiz adabiyotni, adabiyotsiz san'atni tasavvur etib bo'lmaydi. Hamid Olimjonning barcha she'rlarida ohang bor. O'qilganda o'z-o'zidan kuyga solinganday bo'ladi. Axir yaxshi she'rni xalq qalbiga yanada yaqin qilmoq uchun san'at ko'prik vazifasini o'taydi-da... Hamid Olimjonning she'rlarida o'zgachalik, go'zallik, falsafa va hayotiylik mavjud. Hamid Olimjonning she'rlarini o'qigan inson borki, tabiat bilan tillashganday, olam va odam hayotini yanada yaqinroq tushunganday bo'ladi.

*"Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar"*

"O'rik gullaganda" deb nomlangan she'rdagi ushbu satrlar ham kishiga o'zgacha estetik zavq beradi. Ayniqsa, yellarning baxt haqida surishtirishi-yu, qushlarning talab qilishi o'quvchini tabiatga yaqinlashtiradi. Har safar she'r o'qiganimda undagi so'zlarga, so'zlarning o'z o'rnida ishlatilganiga, shoirning mahoratiga va albatta, ohangning borligiga e'tibor qarataman. Inchunun, qofiya izlanib mazmun unutiladigan she'rlar haqiqiy she'r deb nomlanmaydi. Tog' bilan bog' so'zini avval yozib, qofiya o'rniga qo'yib, bu yog'iga bitta gap yozsam she'r bo'ladi, deb o'ylaydigan ijodkor ukasingillarim qattiq adashishadi. She'r mening nazarimda, ilohiy qudrat va kuch.

Ijodkorning ruhiyat bilan kechgan jangidan undirilgan o'lponga o'xshaydi. Axir haqiqiy shoir bir she'rni yozib, uni she'r darajasiga olib kelgunga qadar ruhiyati bilan qancha munozara qiladi-yu, qancha bahslashadi. Hamid Olimjon nafaqat oq she'rlar, barmoq vaznidani nazmiy durdonalarni yaratgan, balki aruzda ham katta natijalarga erishgan shoirdir. Uning bir g'azalidagi quyidagi satrlarni o'qib, xayolga tolaman.

***“Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam,
Labing yaprog'idin tomgan ki, go'yo qatra bol bo'lsam”.***

Shoirning muhabbati tushgan qiz yanog'ida meng bo'lishga qilgan iltijosi, agar bu iltijo javobsiz qolsa, labdan tomgan bol bo'lishga ham roziligi yigit qalbidagi muhabbat naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Muhabbati bor inson mazmunli umr kechiradi. Shoirning shoiraga tushgan muhabbati orqali ham Hamid Olimjon mazmunli, ma'noli, dolzarb, muhim, qadrli va ardoqli she'rlar yoza olgan va tarix sahnasida buyuk akademik shoir sifatida qolgan. Uning she'rlar mazmun ustuvorligi asosida qurilgan. Zulfiyaxonim timsolida o'zbek ayolining yorqin ko'rinishi namoyon bo'lsa, Hamid Olimjon va Zulfiya muhabbatida o'zbek sevgisining yorqin ko'rinishi gavdalanadi. Hamid Olimjon qisqa umr ko'rgan. O'ttiz to'rt yil umrining muhabbatli qismi Zulfiyaxonim bilan kechgan. Garchi, Zulfiya Isroilova ijodkor maslakdoshidan, mehribon turmush o'rtog'idan, suyangan tog'idan erta ajralgan bo'lsa-da, ijodni davom ettirdi. O'zi xotirasida aytganidek “Hamid Olimjon uchun ham ikki hissa ijod qildi”. Hamid Olimjonning shu qadar sof muhabbati, Zulfiyaning shu qadar beg'ubor muhabbati o'rtada buyuk ishqning paydo bo'lishiga zamin hozirladi. Hamid Olimjon bir she'rida shunday yozgan edi.

**Mayli deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman,
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so'rayman.**

Baxtning izlanishi haqidagi satrlarni o'qiganimdan so'ng, Zulfiyaning quyidagi satri ham yodimga keladi. “*Baxtim shu, o'zbekning Zulfiyasiman*” Balki, Hamid Olimjonning baxt haqidagi izlanishlari Zulfiyaning baxti topilishida, asliy baxtni anglashida dastur vazifasini o'tagandir. Bu albatta, mening pedagog sifatidagi fikrim hisoblanadi. Menimcha, Hamid Olimjon va Zulfiya ijodi hamisha bir-biriga yaqin, uyg'un va bir butun she'riyatni tashkil etadi.

**Qaydan kelding, fikrimni bo'lding,
Nega etding meni parishon?
Nega buzding munis holimni,
O'ylarimni nechun bemakon?**

Bu she'r "Hol" deb nomlanadi va Hamid Olimjon tomonidan yozilgan. She'rda, muallifning bir kishi bilan gaplashishini va o'ylariga qarshi kelgan savollarni bayon qilishini ko'ramiz. Muallif o'zining ichki holatini va o'z o'ylarini buzishga olib kelgan sabablarni savol va javoblar orqali ifodalaydi. She'rda, ilhomli, sezilarli va muhim savollar berilgan, shuningdek, uning shoirlik kabi yuqori darajasini bildiruvchi til va uslub ham ko'rsatilgan.

She'rning rifmi "on" va "qon" so'zlari orqali yaratilgan. "Hol" so'zi "halokat", "ezilganlik", "qarshilik" deb tarjima qilinadi. Shoir o'z o'ziga yo'l qo'ygan, o'z o'ylari va yorqinliklariga qarshi kelgan savollarga javob topish orqali boshqa odamlar bilan aloqada bo'lishni xohladi.

Bu she'rning boshqa she'rlar bilan ham jiddiy o'zaro bog'liq va nutqiy tarmoqlari mavjud. Shoirning qo'shiqchilarga, o'qituvchilarga va o'z-o'zini bilishga qarshi qo'ymagan odamlarga qarshi isyonlari, shaxsiy hayotidagi muammolari va dunyoviy turmush haqida aynan shu o'z o'ylari orqali gapirib turadi. Bu she'rning boshqa she'rlar bilan ham jiddiy o'zaro bog'liq va nutqiy tarmoqlari mavjud. Shoirning qo'shiqchilarga, o'qituvchilarga va o'z-o'zini bilishga qarshi qo'ymagan odamlarga qarshi isyonlari, shaxsiy hayotidagi muammolari va dunyoviy turmush haqida aynan shu o'z o'ylari orqali gapirib turadi.

**Shag'irdaydi vahm to'lgan jar,
Shag'irdaydi qorong'i dunyo,
Shag'irdaydi vodiylar, daralar.**

She'r bir necha mo'jizalar va ovozlarning yordamida yozilgan. Mavzusi holbuki va tun, yani kecha va uyingizdagi jangovarlik. She'rning birinchi qismi, yozuvchining hayotidagi qo'rqinchli holatlarni tasvirlaydi, shuningdek, uning hush-ihtiyoriy, qo'rqoq, vahimli va qorong'i dunyo, vodiylar, daraxtlar va daralarga ko'ra uzoqroq qarashlarni tasvirlaydi.

Keyinchalik, she'rni yozuvchining ruhiy holatida tushunchalar o'zgaradi va u xayollarining to'rtta tavsifi kuzatiladi. O'nlab tushunchalar ko'zning ko'zi ostida to'planadi, qo'rqoq, hush-ihtiyoriy xavotirlar o'ziga xos so'zlar bilan tasvirlanadi.

She'rning so'nggi qismi, yozuvchining ko'z yoshi yonar yonmasa ham, barcha ko'z yoshlarini xulosalaydi. Holbukida, u yana bir turmush yurti topishi uchun yurak ichida shirin orzu bilan to'qnashdi. Holbukidagi y'g'li oy nuri, ayollarga yorug'lik qiladi. Tun esa, kelajakdagi yangiliklar va hayotning qayta boshlanishi haqida fikrlarni ifodalaydi.

Shukur Muminovning "Holbuki, Tun..." she'ri, tushunchalar va ovozlarning yordamida yozilgan, to'g'ridan-to'g'riy tushunchalar ko'rsatish uchun o'zbek tilining ijodiy boyliklaridan biridir.

Xulosa o‘rnida ayta olamanki, to vaqt o‘tar ekan, ijodiy muhit yuksalishda davom etar ekan, Hamid Olimjon va Zulfiya she’riyati abadiy bo‘ladi. Ikki ijodkorning muhabbati ishq sayrini boshlamoq yo‘lida turganlar uchun hayotiy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Derazamizning oldida oppoq o‘rik har yili gullar ekan, Hamid Olimjon ham yuraklarda yashashda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
2. H.Olimjon “Tanlangan asarlar” to‘plami-T, 2001.
3. Zulfiya “Bahor keldi seni so‘roqlab” kitobi. T.
4. Adiblar.uz